

45-mavzu: [g`] tovushi. G` g` harfi

Dars maqsadi:

- [g`] tovushining talaffuzi va G` g` harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [g`] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so`zlardan [g`] harfining o`rnini aniqlashni o`rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;
- [g`] tovushi ishtirok etgan so`z va gaplarni o`qishni o`rganadilar.

Tayanch so`zlar: [g`] tovushi

Didaktik materiallar: rasmlı kartochkalar, donli o'simliklar rasmi, turli ovozlarni audio yozuvi

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Meni top mashqi: O'qituvchi doskaga o'tilgan barcha harflarni yozadi. O'qituvchi o'tilgan tovushlarni ayrimlarini aytadi. O'quvchilardan shu tovushlarni ifodalovchi harflarni topishni so'raydi.

- *Bugun siz bilan "Meni top" mashqini o'tkazamiz. Men aytgan tovushlarni doskada yozilgan harflarini orasidan toping..*

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi o'quvchilarga bir nechta audio yozuvni eshittiradi. 1. G`ozlar, mashina o't olib yurmoqchi bo`lgani. O'quvchilar shu eshitganlarini qanday tovush bilan ifodalash mumkinligini so'raydi.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Nimaning ovozini eshitdingiz?*
 - *G`oz qanday ovoz chiqaradi?*
 - *Mashinani ovozini qanday tovush bilan ifodalash mumkin?*
- Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi*

2.Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

O'qituvchi [g`] tovushini qanday hosil bo'lishini tushuntiradi. Undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab, qisqa aytilishi unli bilan birga bo'g`in hosil qilishi haqida tushuncha beradi.

Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.

O'qituvchi uchun eslatma:

G` tovushini talaffuzida lablar bir oz ochiq, harakatsiz bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashgan bo'ladi, ammo birikmaydi. Bu bo'shliq (tirqish) orqali o'pkadan

kelayotgan havo o‘tadi, yumshoq tanglay ko‘tarilgan va tomoqning orqa devoriga siqligaan bo‘lib, burun yo‘llarini yopib turadi. Buning natijasida havo oqimi og‘iz orqali o‘tadi, tovush bog‘lamlari ochiq, tovush jaranglamaydi.

Darslikdan G`g` harfining bosma ko‘rinishi bilan tanishtiriladi. Darslikda berilgan she’r o‘qib beriladi va muhokama qilinadi.

Darslik

45-dars | g` tovushi, G`g` harfi



[g] tovushi – undosh tovush. Taisizzuda lablar biroz ochiq holatda bo‘ladi. Sirg‘alib chiqayotgan havo tovush hosil qildi.

"G"ni yozish qiyinmas,
Biroz e’tibor bering.
G harfining qoshiga
Vergul aksini qo‘ying.

a	o	i	u	o'	e	
g'	g'a	g'o	g'i	g'u	g'o'	g'e
g'oz	tog'	to-g'a	g'al-a	G'a-ni		
g'or	dog'	g'o-ya	g'ur-ra	G'ay-rat		
g'ov	bog'	g'o'-za	g'ud-da	G'u-lom		

G'o-g'o-lay-di g'oz, Kuy-lay-lik bir-ga.
Kuy-lar soz o-voz: Bu bog‘, da-la-da
"O'y-nay-lik bir-ga". Quv-nay-lik bir-ga".

O'lka
Bog‘laringni sayr etganimda,
Sen bor eding qalbda, Vatanim.
Bog‘ husniga she’r bitganimda
Uni dastlab senga atadim.

Erkin Vohidov

56

“G”ni yozish qiyinmas,
Biroz e’tibor bering.
G harfining qoshiga
Vergul aksini qo‘ying.

- *She’rda qanday harfo ‘zgartirilgan?*
- *G` harfini yozish uchun qanday belgi kerak bo‘ladi ?*
- *G` harfi bilan boshlangan qanday so‘zlarni bilasiz?*

O‘qituvchi doskada o‘quvchilarga bo‘g‘inlarni qo‘shib so‘z hosil qilib o‘qish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi.

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan bo‘g‘in va so‘zlar o‘quvchilarga navbat bilan o‘qitiladi. So‘zlar ma’nosi tushuntiriladi.


G‘oz haqidagi she’r o‘qitiladi.
G‘o-g‘o-lay-di g‘oz,
Kuy-lar soz o-voz:
"O'y-nay-lik bir-ga,
Kuy-lay-lik bir-ga.
Bu bog‘, da-la-da
Quv-nay-lik bir-ga".

Rasm asosida suhbat o‘tkazish tavsiya etiladi.

O‘qishni biladigan o‘quvchiga Erkin Vohidovning "O'lka" she’ri o‘qitiladi.
Bog‘laringni sayr etganimda,
Sen bor eding qalbda, Vatanim.
Bog‘ husniga she’r bitganimda
Uni dastlab senga atadim.

Daftар bilan ishslash: (10 daqiqa)

1. *G` g` harfini tegishli rangga bo'yang. Nega shu rangni tanlaganiningizni ayting.*
 2. *G`udda so'zining chizmasidan [g'] tovushining o'rmini aniqlang va tegishli katakni bo'yang.*
 3. *Berilgan namunadan bosma G`g` harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan o'zingiz yozing.*
 4. *So'zlarni avval nuqtalar yordamida so'ng mustaqil yozing.*
 5. *Bo'sh katakka berilgan harflar orasidan mosini qo'yib yozing.*
- G`oya, soya, g`alla, palla, pilla, tilla, bog`, tog`, yog`, sog`, dog`...*



Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?
- Qaysi topshiriqni bajarishga qiyndaldingiz?

46-mavzu: [g'] tovushi. G`g` harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [g'] tovushining talaffuzi va G`g` harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [g'] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;
- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: [g'] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: rasmi va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.